



DUTOR OILASINING YARATILISHI TARIHI HAMDA TAKOMILLASHUVI

ABSATOVA MUNISA ABDUSALOM QIZI

Termiz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat va san'at fakulteti

Musiqiy ta'lim yo'nalishi 23-01 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: M.Xo'jageldiyeva

Musiqqa mahorati va madaniyati kafedراسи katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy ishda Sharq xalqlarining qadimiy torli cholg'ularidan biri — dutorning kelib chiqishi, tuzilishi va rivojlanish bosqichlari o'rganilgan. Dutorning tarixiy ildizlari, shakl va ijro uslublaridagi farqlari, turli hududlarda qo'llanilish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy dutorlar oilasi va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijasi sifatida dutorning o'zbek xalq musiqasidagi o'rni va uslubiy maktablari alohida ta'kidlangan.*

Kalit so'zlari: *Dutor, Sharq musiqasi, torli cholg'u, Zaynulobidin al-Husayniy, musiqiy meros, an'anaviy cholg'ular, dutor maktablari, ijrochilik uslubi, dutor oilasi, musiqaviy modernizatsiya.*

Sharq musiqiy sozlari juda qadimiy o'tmishga ega. Ularning har-biri o'ziga xos kelib chiqish tarixiga ega. Zero har-bir cholg'u o'zi mansub bo'lgan xalqning turmush tarzi, mentaliteti, an'anayu udumlarni o'zida mujassam etib, o'sha davr insonlarining hayot-tarzigа, sharoitiga moslashgan. Bu haqda asrlar davomida ajdodlardan og'izdan -og'izga o'tib kelgan hikoyatu-rivoyatlardan, o'sha zamon olimlarining risolalaridan, arxeologik topilmalar, tog'lardagi qoya-toshlarda tasvirlangan rasmlardan bilib olishimiz mumkin. Ana shunday qadimiy tarixga ega sozlardan biri - dutor, xalq musiqqa san'atida o'ziga xos o'rin tutadi. Dutor - Markaziy Osiyo xalqlari, shuningdek xorijiy Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan,



chertib ijro qilinuvchi qo‘sh torli musiqiy cholg‘ular sirasiga kiradi. Ushbu cholg‘u haqida dastlabki ma'lumotni, XV asr olimi (Temuriylar davrida) Zaynulobidin al-Xusayniyning A.Navoiyga bag‘ishlangan “Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy” (“Musiqaning ilmiy va amaliy qonunlari”) nomli risolasida uchratamiz.

Undagi ma'lumotlarga tayanib, biz o‘sha zamonda kvarta intervali oralig‘ida sozlanuvchi o‘n bir pardaga ega bo‘lgan ikki torli cholg‘u bo‘lgani haqida bilishimiz mumkin. Cholg‘uning pardalari arab alifbosi harflari bilan belgilangan bo‘lib, an’anaviy musiqiy ohanglar yaratish me’yorlariga asoslangan va hozirgi zamonaviy dutordan anchagina farq qilgan. Faqat dasta qismi nisbatan qisqaroq, kosasi va bo‘g‘zi kattaroq (“Ud” dan kichikroq) bo‘lganligi qayd qilingan. Dutorning eng asosiy belgisi, bu uning torlari sonida bo‘lib, “dutor” ya’ni ikki tor so‘zining paydo bo‘lishiga, shunday ko‘rinishdagi boshqa ko‘p torli sozlardan farqlanishi sabab bo‘lgan.

Dutor - Markaziy Osiyo xalqlarining aksariyatida ya’ni o‘zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq, uyg‘ur xalqlari orasida keng tarqalgan milliy cholg‘u. Ular bir-biridan shaklan, qisman usluban (ijro etish), tarkiban (tovushqator, diapazon) bir oz farq qilsada, xususiyati jihatidan biri-biriga mos va mutanosib. Dutor va tanburning o‘zaro bog‘liqligi haqida turkman mumtoz she’riyatida ham bir necha satrlar bor. Azaldan “tanbur” va “dutor” so‘zlari turkmanlar tomonidan sinonim sifatida ishlatilgan. Dutor “tanbur” yaqin “tamdir” so‘zi bilan ataladi. Ayrimlar bu so‘zning kelib chiqishiga, cholg‘u qopqog‘ining (deka) tandirda kuydirilgani sabab bo‘lgan, degan tahmini ilgari surishsa, yana bir tahminlardan biri “tamdir” so‘zi “tommir-tommir” ya’ni dutorda ijro etilganda eshitiluvchi tovushdan kelib chiqqan, degan hulosadir. Lekin, bu ikkala tahmin ham haqiqatga yaqin emas. Sh. Gullievning fikricha “tamdir”, “tanbur” so‘zining bir ko‘rinishi bo‘lib, keyinchalik shevadv “tamdir” iborasiga aylanib ketgan. Turkman xalqi orasida dutorning kelib chiqishi haqida bir necha afsonalar bor. Shulardan biri V. Uspenskiy bilan suhbat



chogʻida Sari baxshi soʻzlab bergan afsona boʻlib, bu ham dutor cholgʻusi XV asrda qayd etilganidan qadimiyroq ekanini taʼkidlaydi.

Afsonalardan birida Xazrat Ali (VII asr oxiri, VIII asr boshlari) otining kundan - kunga ozib ketayotganidan havotirlanib, otxonasiga kirsam, u yerda otboqari qandaydir soz ijro etayotganiga koʻzi tushadi. Sozdan taralayotgan yoqimli sadoga mahliyo boʻlgan jonivor oldida turgan ovqatini ham unutgan ekan. Hayratini yashira olmagan hazrat Ali otboqardan: - Bu ne cholgʻu? – deya soʻrabdi. Otboqar: “Tuttur” deb javob beribdi va tut daraxtidan yasaganini, torini esa ipakdan tortganligini haqida aytibdi¹. Shunda Xazrat Ali: - Tutning ayrilgan qismlari yana birlashganidan soʻng shunday mungli ohang chiqarayotgan boʻlsa kerak! -degan xulosaga kelgan ekan. “Dutor soʻzining zaminida yangi cholgʻu emas, balki, Sharqda keng tarqalgan tanbur cholgʻusining bir koʻrinishi”, degan xulosani T.S.Vizgo ilgari surgan.

Yuqorida keltirilganidek, dutor sozi haqidagi ilk maʼlumot, XV asrda qayd etilgan boʻlsa-da, uning paydo boʻlishiga, maʼlum darajada zamin yaratgan, qadimiy sozlar haqida maʼlumotlarni keltirishni joiz deb topdik. Albatta, bu faqatgina taxmin xolos. Qadimda mavjud boʻlgan cholgʻular orasida ikki torli, kichik kosa va uzun dastali ud sozi haqida maʼlumotlar bor. Oʻrta Osiyoda oʻtkazilgan arxeologik qazilma ishlari jarayonida juda koʻp musiqa cholgʻulari tasvirlari, terrakotalari (loydan yasalgan haykalchalar) topilgan. Shulardan, Salavkiylar hukmronligi davriga oid ikki torli udning terrakotasi boʻlib, uning ijrochilari aksariyat ayollar ekani eʼtiborga molik. Cholgʻularning deyarli barchasi bir-hil, kosasi kichikroq (yogʻochdan oʻyib ishlangan), dastasi esa uzun.

Dutor - noksimon korpusli, dastasi uzun ikki torli cholgʻu asbobi. Dutorning umumiy uzunligi 1150 mm dan 1200 mm gacha boʻladi. Kosaxonasi alohida egma taxtacha (qovurgʻa) yopishtirib ishlanadi, qopqogʻi yupqa, tekis,

¹ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(01), Jan., 2024
SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7 www.oriens.uz DUTOR CHOLGʻU TARIXIGA NAZAR Xurshida Mirzafarovna
Mirsolixova



ba'zida unda rezonator teshikchalar bo'ladi. Dastasining pastki tomoni to'la qilib ishlanadi, yuqorisi ingichka, bo'g'izga qarab kengayib boradi. Dastaga 13-14 parda bog'lanadi. Uchiga ikkita — vertikal va Go'rizontal quloq o'natiladi. Asbobning barcha qismlari tut yog'ochidan tayyorlanadi va kopincha suyak hamda sadaf bilan bezatiladi. Tori ipak ip bilan eshilgan va bir uchi kosaxona ostidagi ilgakka (bo'rtiqqa), ikkinchi uchi esa quloqlarga bog'lanadi. Qopqoqda torlar kichkina yog'och xarak uslidan o'tadi. Torlari ko'pincha kvarta (Tanovar sozi) ga, ba'zan unison (Qo'shtor sozi) va kvinta (Munojot sozi)ga sozlanadi. Tovushqator past pardada xromatik (nim parda), baland pardada esa diatonik bo'ladi. Cholg'u (diapazoni bir yarim oktavaga teng. Dutorning uncha baland bo'lmagan tovushiga o'ng qo'l tirnoqlari qopqoqqa tegishidan hosil bo'lgan tovush (to'lqini) qo'shib eshitiladi². Dutor – o'zbek xalqining eng keng tarqalgan torli cholg'ularidan biri.

A.Petrosyans dastali cholg'ularni modernizatsiyalashtirishda 5 ta asosiy masalani kun tartibiga qo'yadi:

1 - dastada joylashgan boylanma diatonik tovushqatorni 12 bosqichli teng temperatsiyalangan va dastaga o'rnatilgan xromatik tovushqator bilan almashtirish;

2 – cholg'ular oilasini yaratish;

3 - tovush sifatini yaxshilash, kuchini oshirish va cholg'ular diapazonini kengaytirish;

4 - tovush chiqarish, ya'ni ijrochilik imkoniyatlarini qulaylashtirish;

5 – cholg'ularni yangi texnologiya asosida yaratish.

Shu tariqa an'anaviy dator asosida dator tenor (900mm.li) cholg'usi yaratildi. Bunda birinchi bo'lib dastada joylashgan boylanma diatonik tovushqator 12 bosqichli teng temperatsiyalangan va dastaga o'rnatilgan xromatik tovushqator

² O'zbek xalq cholg'u asboblari haqida ma'lumot "Атлас музыкальных инструментов народов СССР" ("Музыка", М., 1975. 157-165-betlar) dan qisqacha keltirilmoqda. Ovoz-texnika va ijrochilik hamda ulardan hozirgi musiqa amaliyotida amaliy foydalanish tavsifini A. Petroseansning "Инструментоведение" (Узбекские народные инструменты) kitobidan qarang (Toshkent "1990")



bilan almashtirildi. Shuningdek dutor tenor asosida dutor prima, dutor sekunda, dutor alt, dutor bas va dutor kontrabasdan tashkil topgan dutorlar oilasi yaratildi. G'ijjaklar singari dutorlar oilasidan ham orkestrlar tashkil etildi. Bunday jamoalar o'quv jarayonida ko'p qo'llanilgan, hozirgi kunga qadar bolalar musiqa va san'at maktablarida, shu bilan birga akademik litsey, musiqa kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida orkestr ijrochiligi amaliyotida qo'llanilmoqda.

Shu tariqa an'anaviy dutor asosida dutor tenor (900mm.li) cholg'usi yaratildi. Bunda birinchi bo'lib dastada joylashgan boylanma diatonik tovushqator 12 bosqichli teng temperatsiyalangan va dastaga o'rnatilgan xromatik tovushqator bilan almashtirildi. Shuningdek dutor tenor asosida dutor prima, dutor sekunda, dutor alt, dutor bas va dutor kontrabasdan tashkil topgan dutorlar oilasi yaratildi. G'ijjaklar singari dutorlar oilasidan ham orkestrlar tashkil etildi. Bunday jamoalar o'quv jarayonida ko'p qo'llanilgan, hozirgi kunga qadar bolalar musiqa va san'at maktablarida, shu bilan birga akademik litsey, musiqa kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida orkestr ijrochiligi amaliyotida qo'llanilmoqda.

Dutor (forscha: dutar) – O'rta Osiyo, Eron va Janubiy Osiyoda tarqalgan an'anaviy ikki torli musiqa asbobidir. Nomi fors tilidan "ikki tor" deb tarjima qilinadi, biroq Hirot dutori o'n tor'tta torli bo'ladi. Dutor XV asr atroflarida paydo bo'lgan deya tahminlar mavjud. O'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O'zbek dutori muloyim, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. Dutorning dutor-alt turi ham mavjud, dutor kontrabas, dutor bas kabi zamonaviy turlari ham mavjud.

Yasalishi: Dutor tut, o'rik, yong'oq yog'ochlaridan yasaladi. Dutorning qorni o'nga yaqin yupqa taxtakachni egib, bir-biriga yopishtirilib yasaladi. Buning ustidan qopqoq yopiladi va tayyor bo'lgan qorin dastaga ulanadi.

Torgir yoki tor ilgak dutorning ikki simini ko'tarib turadi. Dutorning dastasi ingichka uzun bo'ladi. Boshqa torli asboblarda odatda metal pardalar bo'lsa,



dutorda dastasiga o‘ralgan 15 ga yaqin ipak parda bo‘ladi. Zamonaviy dutorlarning pardalari ba‘zan yog‘och yoki suyakdan yasaladi.

Registri: Dutorda bir yarim oktava atrofidagi diatonik-xromatik gamma bor.

Dutor dastasi suyak, sadaf bilan bezaladi. Dutor torlari avvaliga ichakdan, keyin ipakdan tayyorlanar edi. Zamonaviy dator torlari neylondan qilinadi. Dutor yakkanavoz va jo‘rnavoz cholg‘u sozi bo‘lib, sozandadan katta ijro mahoratini talab etadi. Dutorda yakka zarb, qo‘shzarb, bilak zarb, teskari zarb kabi ijro usullari mavjud. Dutor haqidagi dastlabki yozma ma‘lumotlarni Navoiyning zamondoshi Zaynulobidin al-Husayniy “Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari” nomli risolasi (XVI bobi)da uchratamiz. XVI – XVII asrlarda “Dutoriy” taxallusi bilan ijod etgan (hirotlik Yusuf Mavdudiy Dutoriy, mashhadlik Mirquliy Dutoriy kabi) sozandalarning nomlari manbalarda saqlangan. Hozirda milliy dator ijrochiligining o‘ziga xos uslublari 4 ta asosiy (Andijon, Toshkent, Samarqand va Xorazm) datorchilik maktablari orqali namoyon bo‘ladi.

Dutor-alt – an’anaviy dutorni 1930-yillarda qayta ishlash natijasida paydo bo‘lgan turi. Torlari kapron (yoki boshqa polimer iplari) dan ishlanadi. Dastasiga xromatik tartibda joylashgan yog‘och yoki suyak pardalari yelimlab yopishtiriladi. Repertuaridan asosan o‘zbek kompozitorlari tomonidan qayta ishlangan (garmonizatsiyalashgan) xalq kuylari, fortepiano jo‘rligida ijro etilayotgan asarlar o‘rin olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Milliy cholg'u sozlar va ularning xususiyati Sharipova Odinaxon Shavkatjon qizi Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti talabasi
2. G‘afurbekov T. Saylanma 70 “Musiqa” nashriyoti. Toshkent. 2009. – 176 bet
3. Akbarov I. Musiqalug‘ati. Toshkent: “O‘qituvchi”, 1997. -384 bet



4. Садоков Р.П. Музыкальная культура древнего Хорезма.-
Москва,197
5. “DUTOR CHOLG’U TARIXIGA NAZAR” Xurshida Mirzafarovna
Mirsolixova “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrası o‘qituvchisi, O‘zbekiston
davlat konservatoriyasi
6. Toshpolatova I. An’anaviy dutor ijrochiligi. Toshkent 2004
7. Akmaljonova M. Dutor orkestri. Toshkent «G’.G’ulom nashriyoti»,
2004
8. “DUTOR IJROCHILIGI TA’LIMINING MAZMUNI” Eliyeva
Sayyora Azamat qizi Qarshi DU magistri
9. Rahimjonov B. H. Dutor taronalari. Toshkent 1983 y